

BOSHLANG‘ICH SINFDA RUS TILINI O‘QITISHNING ASOSIY YO‘NALISHLARI VA METODIK YONDASHUVLARI

Sultonova Xurshidaxon Sobirxon qizi

Namangan viloyati, Kosonsoy tumani

14-sonli umumta’lim maktabining rus tili fani o‘qituvchisi

Bugungi globallashuv jarayonida chet tillarini, xususan, rus tilini o‘rganish zaruriy ehtiyojga aylangan. Boshlang‘ich sinf davri o‘quvchilarning nutqiy, eshitish, o‘qish va yozish ko‘nikmalarini shakllantirishda poydevor bosqich bo‘lib xizmat qiladi. Shu sababli bu davrda rus tilini o‘qitish nafaqat grammatik bilimlarni berish, balki o‘quvchilarning muloqot qilish, fikrlash va o‘z fikrini ifodalash malakalarini rivojlantirishga yo‘naltirilgan bo‘lishi kerak.

Boshlang‘ich ta’limda rus tilini o‘rgatishda o‘yin, vizual va kommunikativ metodlardan samarali foydalanish, o‘quvchilarning yosh xususiyatlariga mos interfaol yondashuvni qo‘llash muhim ahamiyat kasb etadi. Til o‘rganish jarayoniga zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy etish o‘quvchilarni rus tiliga bo‘lgan qiziqishini oshiradi, ularning nutqiy faolligini kuchaytiradi va til muhitini tabiiy ravishda shakllantiradi. Boshlang‘ich sinf bu bolalarning til o‘rganishga bo‘lgan asosiy qiziqishi va qobiliyatlari shakllanadigan davrdir. Aynan shu bosqichda rus tilini o‘qitish jarayoni bolalarning nutqiy, eshitish, o‘qish va yozish ko‘nikmalarini uyg‘un rivojlantirishga yo‘naltirilgan bo‘lishi zarur. Rus tili darslari orqali o‘quvchilar nafaqat yangi so‘zlarni o‘rganadilar, balki muloqot qilish, fikrini ifodalash va boshqa madaniyatni anglash imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

Boshlang‘ich sinfda rus tilini o‘rgatish quyidagi maqsadlarni ko‘zlaydi:

1. O‘quvchilarda og‘zaki nutq ko‘nikmalarini shakllantirish;
2. Rus tilidagi asosiy lug‘at boyligini o‘rgatish;
3. Matnni to‘g‘ri o‘qish va tushunish ko‘nikmalarini rivojlantirish;
4. Yozma savodxonlik asoslarini yaratish;
5. Muloqot madaniyatini singdirish.

Boshlang‘ich sinfda rus tilini o‘qitishda quyidagi metodlar samarali hisoblanadi:

- ☐ Vizual metod (ko‘rgazmali o‘qitish)
- ☐ Rasmlar, kartochkalar, videolar orqali so‘z va gaplarni o‘rgatish.
- ☐ Alfavit va fonetik plakatlardan foydalanish.
- ☐ O‘yin metodi
- ☐ Til o‘rganishni qiziqarli qilish uchun turli til o‘yinlari (jumboq, rolli o‘yinlar, mimika orqali topshiriqlar).

☐ “Kim tez aytadi?”(Кто скажет быстрее?), “Top va ayt”(Найди и скажи) kabi mashg‘ulotlar.

- ☐ Audiolingval yondashuv
- ☐ Eshitish orqali to‘g‘ri talaffuzni shakllantirish.

☐ Rus tilidagi audio matnlar bilan ishlash (she’rlar, ertaklar, dialoglar).

☐ Kommunikativ metod

☐ Muloqotga asoslangan mashg‘ulotlar.

☐ O‘quvchilarni kichik suhbatlarga jalb qilish (“Приветствие”-“Salomlashish”, “О себе”-“O‘zim haqimda”, “О моей семье”-“Oilam haqida”).

Boshlang‘ich sinfda rus tilini o‘rgatish orqali o‘quvchilarda tilga bo‘lgan qiziqish, mustaqil fikrlash va ifodalay olish malakalari shakllanadi. Muvaffaqiyatli ta’lim uchun o‘yinli yondashuv, multimedidan foydalanish, va individual yondashuv muhim ahamiyatga ega.

Xulosa qilib aytganda, boshlang‘ich sinfda rus tilini o‘qitish o‘quvchilarning kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirish, ularni to‘g‘ri talaffuz, o‘qish, yozish va eshitish malakalariga ega bo‘lishga yo‘naltirishni talab etadi. Darslarda o‘yinli, vizual, audiolingval va kommunikativ metodlarni uyg‘un qo‘llash o‘quvchilarning bilimni mustahkam o‘zlashtirishlariga yordam beradi. Rus tili darslarida o‘quvchilarning yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda o‘yinli yondashuv, multimedidan foydalanish hamda individual yondashuv asosida ta’lim tashkil etilsa, bu ularning tilga bo‘lgan qiziqishini kuchaytiradi va samarali natijalarga erishish imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Вольнова Д. Н., Меланченко Е. А. Организация процесса обучения русскому языку как иностранному: актуальные проблемы преподавания русского языка как иностранного, роль преподавателя и учащегося в процессе обучения // Современные научные исследования и инновации. 2016. № 8.

Пранцова Г. В. Обучение школьников драматическому типу словесного

2. художественного творчества на основе фантастического вымысла.// Русский язык в школе. 2001 № 5. –С.15

3. Боброва, С.В. Формирование языковой культуры на уроках русского языка / С.В. Боброва // Русский язык в школе. – 2010. – №4. – С. 9-16.

4. Кларин М.В. Инновационные модели обучения в зарубежных педагогических поисках / М. В. Кларин. – М. : Арена 1994. – 124 с

5. Махмутов М. И. Организация проблемного обучения в школе / Махмутов М. И. – М., 1977. –240 с.